



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Sanobar Ollaberganova¹, Sapayeva Boljon²

¹ *Urganch davlat universiteti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrası dotsenti*

² *Urganch davlat universiteti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrası katta o‘qituvchisi*

SAVOD O‘RGATISH JARAYONIDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH ORQALI DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada savod o‘rgatish davri va bu davrda o‘qishga hamda yozuvga o‘rgatish darslarini didaktik o‘yinlar orqali tashkil etish, didaktik o‘yinlarning bola hayotidagi o‘rni masalalari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: savod orgatish davri, tovush,harf, tahlil-tarkib, dars,o‘yin, didaktik o‘yin.

Kirish. Barkamol avlod-jamiyat taraqqiyotining asosi. Shu bois mamlakatimizda ham jismonan, ham ma’nan barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir.

Maktabda o‘qitish elementar o‘qish va yozishga o‘rgatishdan boshlanadi.

“Alifbe”ga asoslangan holda qisqa vaqt ichida o‘quvchilar o‘qish va yozishga o‘rgatiladi, ya’ni o‘qish va yozish ko‘nikmasini egallaydilar. Endigina maktabga qadam qo‘ygan bolaga savod o‘rgatish juda nozik ish bo‘lib, uning qulay usullarini topishga intilish ta’lim jarayonida uzoq tarixga borib taqaladi.

Maktabga kelishi bilan bolaning hayotida muhim bosqich boshlanadi. Shaxsning yangi ijtimoiy mavqei, ya’ni ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyat shakllaridan birining bevosita ishtirokchisi bo‘lib, bu juda ko‘p kuch talab qiladi. Bu davrda bolalarga yangi talablar



qo'yiladi, u yangi mas'uliyatga ega bo'ladi, yangi o'rtoqlar, kattalar bilan yangi munosabatlar, shuningdek, muayyan axloqiy sa'y-harakatlar va ish munosabatlariga qo'shilish tajribasini talab qiladi. Lekin bolalar unga yangi ijtimoiy vaziyatga javob berishga tayyormi? Psixologlar, umuman olganda, bolalarning aqliy va jismoniy rivojlanish darajasi ularni umumta'lim maktabida muntazam ta'lim ishlarini muvaffaqiyatli bajarishga imkon beradi, deb hisoblashadi. Shu bilan birga, bolalarning hayajonlanish, hissiylik, juda tez charchash, e'tiborning beqarorligi, xatti-harakatlarning holati bilan ajralib turishini hisobga olish kerak. Ko'pgina tadqiqotchilar maktab o'quv materiallarida aqliy harakatlarning shakllanish jarayoni bolalarning o'yin faoliyatida aks etishini ta'kidlaydilar.

1-sinfga kelgan o'quvchilar maktab sharoitlariga, uning qat'iy tartib-qoidalariga tezda moslashib keta olmaydilar. Shu bois ularni o'zlari o'ynab yurgan tanish o'yinlar vositasida ilm-fan sirlari tomon qiziqtirish kerak.

Bu o'rinda o'tkaziladigan didaktik o'yinlarni dastur talabiga, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishini hisobga olish, ularning yangi mavzuga bog'lanishini ham inobatga olish lozim. O'yin vositasida o'quvchilar bilimi mustahkamlanganda ularni yosh bo'g'inga beradigan ma'naviy-axloqiy ozuqasini har tomonlama e'tiborga olish — ya'ni, ta'lim-tarbiya birligiga amal qilish maqsadga muvofiqdir.

Didaktika – grekcha so'z bo'lib, «didasko», ya'ni «o'qitish», «o'rgatish» ma'nolarini bildiradi. Ta'lim qonuniyatlarini o'rgatish, tahlil qilish jarayonida ta'lim tushunchasi uning mohiyati, mazmun va vazifalari, o'qitish tamoyillari, shakllari haqida bilimlar bayon etiladi.

Bolalarga o'yinni o'rgatishdan muayyan ta'limiy maqsad nazarda tutiladi. O'yinning eng muhim ahamiyati ham ana shundadir. O'yin o'tkazilish shakllari va usullari bilan ta'limning boshqa turlaridan farq qiladi.

Didaktik o'yinlar o'zining shakli jihatidan asosan bog'chada o'ynaladigan ijodiy o'yinlardan ham, o'qituvchi o'zi hikoya qilib berish yo'li bilan tushuntiradigan va o'quvchilarni birma-bir so'rab chiqish natijasida mustahkamlanadigan o'yinlardan ham har tomonlama farq qiladi. Didaktik o'yinlar o'qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. Bolalar g'olib chiqish maqsadida jon-u dili bilan mashq qiladilar, berilgan har bir topshiriqni albatta bajarishga odatlanib qoladilar, natijada ular da didaktik topshiriqlarni bajarishga bo'lgan qiziqish orta boradi. Didaktik o'yinlar har bir darsning maqsadini, har bir mashqning maqsad va vazifalarini yaxshiroq tushunib olishga yordam beradi.

Didaktik o'yinlar bolaning his-tuyg'usiga ta'sir etib, unda o'qishga ijobiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi. Bolalar o'yinni zo'r mamnuniyat bilan ijro etadi. o'yin boshlanishini esa sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida beixtiyor ertangi o'quv kunining quvonchli manzarasi gavdalanadi.

Darsda o'yinqaroqlik qilib o'tiradigan va o'qituvchini bitta dars davomida 10—15 martagacha tanbeh berishga majbur etadigan bolalar ham uchrab turadi. Biroq o'yin o'tkazilayotgan vaqtda bunday bolalarning xulq-atvori tamoman o'zgarib ketadi. Ular darhol o'zlarini tutib oladilar, o'qituvchining o'yin qoidalarini ko'rsatib berishini kutib o'tirmaydilar ham, qoidalarni o'zlari bajonu dil va mustaqil bajaradilar. Didaktik o'yinlar jarayonida bolalarda uyushqoqlik, vaqtni iloji boricha tejay bilish xislatlari tarbiyalanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Boshlang'ich sinflarda didaktik o'yinlardan foydalanish mavzusi bo'yicha matbuotda bir qancha metodist va



o'qituvchilarning maqolalari e'lon qilingan. Jumladan, Rohatoy Safarova, Muhayyo Inoyatova, Mirhabib G'ulomov, Dadajon Sayfurov, Dilrabo Malikovalarning "Alifbe" O'qituvchilar uchun metodik qo'llanmasida savod o'rgatish davrida didaktik o'yinlardan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalar berib o'tilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. (Research Methodology). Ma'lumki, savod o'rgatish juda mas'uliyatli va shu bilan birga o'quvchining xotirasida bir umr saqlanib qoladigan davr hisoblanadi. Keyingi sinflarda beriladigan bilimlar o'quvchi tomonidan muvaffaqiyatli o'zlashtirilib olinishi ham bevosita yozma va og'zaki nutqiy ko'nikmalarning qay darajada rivojlanganligiga bog'liq. Shuning uchun ham yoshlarni o'qitish va ularni hayotga tayyorlashda savod o'rgatish mashg'ulotlariga alohida e'tibor beriladi. Har bir tovush - harfning talaffuz qilinishi va yozilishini mukammal o'zlashtirib olishlari uchun turli xil usullarni dars jarayoniga singdirish o'quvchida mustaqil fikrlash va ijodiy ishlash ko'nikmasini shakllantirishga bog'liq. Savod o'rgatish davrida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar o'quvchi imkoniyatlarini to'la ishga solish, har bir tovush va harfning eng nozik tomonlariga alohida diqqat bilan qarashga undaydi. Bu davrda qo'llaniladigan didaktik o'yinlar ham xilma-xil bo'lib, o'quvchiga bilim berish, uni toliqishdan saqlash, o'zi bajargan ishdan zavqlanish imkoniyatini yaratadi. Savod o'rgatish davrida o'quvchilarga bilim berish o'yin asosiga qurilsa, samarali natijalarga erishish mumkin. Bu yoshdagi bolalarni toliqtirmaslik, o'qish va yozuv darslarini qiziqarli tashkil etish, husnixat malakalarini shakllantirish va mustahkamlash uchun yozuv darslarini o'yin shaklida tashkil etish zarur. O'quvchilar bilan didaktik o'yinlar uyushtirilgan ekan, ularga barcha o'quvchilarni ayniqsa, yozayotganda xato va kamchiliklarga yo'l qo'yadigan o'quvchilarni ko'proq jalb qilish kerak. Savod o'rgatish davrida qo'llaniladigan didaktik o'yin turini tanlashda sinf o'quvchilarning xususiyatlari, qiziqish va imkoniyatlarini hisobga olish lozim.

Kichik yoshdagi o'quvchilar jamiyat hayotini o'yin orqali anglaydilar. O'yin vaziyatlari ularga ortiqcha tushuntirish va nasihatlarsiz xulq-atvor qoidalarini amaliy jihatdan oson, maroqli tarzda o'rganishga yordam beradi. Kichik yoshdagi o'quvchilar jamiyat hayotini o'yin orqali anglaydilar. O'yin vaziyatlari ularga ortiqcha tushuntirish va nasihatlarsiz xulq-atvor qoidalarini amaliy jihatdan oson, maroqli tarzda o'rganishga yordam beradi.

O'yin bolalarning birgalikdagi, hamkorlikda amalga oshiradigan faoliyatini vujudga keltiradi. Har qanday o'yin muayyan mezonlar, qonun-qoidalar, tartib va intizomni talab etadi. O'yin jarayonida bola o'zini bemalol, erkin his qiladi, o'zining haqiqiy qiyofasini namoyon etadi. Yayrab kuladi, harakatlanadi, o'z fikrini uyalmay, tortinmay bayon qiladi. O'yin asnosida ko'pgina jamoatchilik qoidalarini o'zlashtiradi, tartib-intizomga o'rganadi.

O'yin bola hayotida juda muhim rol o'ynaydi. Kattalarga kundalik hayot tajribalari qanchalik zarur bo'lsa, bola uchun o'yin shunchalik zarur. O'yin jarayonida bola qanday bo'lsa, keyinchalik katta bo'lgach, ishda ham o'zini shunday tutadi. Shu sababli faol insonni tarbiyalashda o'yinlarning ahamiyati juda katta.

Ana shu maqsadda savod o'rgatish davrida o'quvchilar bilan didaktik o'yinlar o'tkazishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari fonetikadan bir qator bilimlarni egallaydilar. Unli, undosh tovushlarni talaffuz qilish va taqqoslash asosida farqlaydilar. Undosh tovushlarning jarangli va jarangsiz talaffuz etilishi, jufti bor va jufti yo'q jarangli va jarangsiz undosh tovushlar haqida amaliy bilim oladilar. Bu borada boshlang'ich sinflarda qo'llaniladigan tekshirish

metodi tovushlarning jarangli yoki jarangsiz ekanligini anglab olish imkonini beradi. Bu o‘z navbatida to‘g‘ri yozishda qo‘l keladi. Shuningdek bu sinflarda bo‘g‘in va uning turlari, urg‘uli va urg‘usiz bo‘g‘inlar, tovushlarning bir-biriga ta‘siri haqida amaliy bilim oladi. Bularning barchasini o‘zlashtirib olish bir qator murakkabliklar tug‘diradi. Shu tufayli boshlang‘ich sinflarda fonetika o‘yinlardan foydalanish qo‘l keladi.

Savod o‘rgatish davrida foydalaniladigan didaktik o‘yinlardan ayrimlarini keltirib o‘tamiz.

“So‘z tuzish” o‘yini

Bu o‘yinlarni bajarish o‘quvchilarga tovushning so‘z hosil qilishidagi ahamiyatini to‘laroq tushunib olish imkonini beradi. O‘quvchilar ushbu o‘yinda ishtirok etar ekan, so‘zlarning turli- tuman usullar bilan hosil bo‘lishi katta qiziqish uyg‘otadi. O‘zlari hosil qilgan yangi so‘zlardan bevosita zavq olishga muvaffaq bo‘ladi. So‘z tuzish o‘yini savod o‘rgatishning tahlil – tarkib (analiz – sintez) tovush metodi asosida bajariladi. Ushbu metodning ikkinchi qismi tuzish, qurish, birlashtirish singari ma‘nolarni bildiradi. So‘z tuzish o‘yini ham aynan so‘zga hilma-hil tovushlarni, bo‘g‘inlarni qo‘shish orqali hosil bo‘ladi. Bu o‘yinni bajarishda so‘zga turli xil usullar bilan tovush qo‘shib yangi so‘z hosil qiladi.

“O‘zingni yelpi” o‘yini

Bir o‘quvchi doskaga chiqarilib, unga yelpig‘ich beriladi. O‘quvchilar unga savollar beradilar. Doskadagi o‘quvchi savolga tez javob berishi lozim. Javob bera olmasa, yelpig‘ich bilan o‘zini yelpiydi. Agar yelpig‘ichda o‘zini yelpish esidan chiqsa, mag‘lub bo‘lib, o‘yindan chiqadi. Javob berolmasa ham o‘zini yelpisa, keyingi savolni qabul qilishi mumkin bo‘ladi. O‘yin oxirida uning nechta savoldan qanchasiga javob bergani aniqlanadi. Shu tariqa o‘quvchida ziyraklik, topqirlik, o‘zini tuta bilish layoqatlari rivojlantiriladi.

“Zanjir” o‘yini

O‘qituvchi bir so‘z aytadi, o‘quvchilar ketma-ketlikda zanjirni uzmasdan shu so‘z tugagan harf bilan boshlanuvchi so‘zni aytishlari lozim bo‘ladi. So‘z topolmay qolgan o‘quvchi zanjirni uzgan hisoblanadi va o‘yindan chiqib turadi. “Zanjir o‘yini” ga misol: daftar, ruchka, anor, rubob, baliq, qalam, ...

“Sirli kataklar” o‘yini

O‘qituvchi ko‘rgazmani ko‘rsatib, kerakli harflarni qo‘yib so‘zlarni o‘qishni aytadi. Bunday ko‘rgazmalar alifbe kitobining hamma mavzusida bor. Kitobning sahifalarida o‘rganilayotgan tovush va harf bilan bog‘liq narsa – buyumlarning rasmi berilgan. Shu rasmlarning ostiga katakchalar ilova qilingan. Katakchalar soni harflar soniga teng bo‘lganligi o‘quvchilarning o‘yinni to‘g‘ri bajarishiga yordam beradi.

Bu o‘yinni uyushtirishda o‘quvchilar guruhiga ikki-uchtadan shunday topishmoqlar beriladi.

“Bo‘g‘inlardan so‘z tuzish” o‘yini

Doskaga yozma harflar bilan *lola, ona, ana, tola, Lola, Ali* so‘zlari yozib qo‘yiladi. O‘quvchilar kesma bo‘g‘inlar yordamida shu so‘zlarni yozadilar. *L* tovushi so‘zning qayerida kelayotganini aniqlaydilar. *L* tovushi qatnashmagan so‘zlaning aralashtirilib berilishi o‘quvchilar diqqatini orttiradi. Bunday o‘yinlarni boshqa harflarni o‘rganish davomida ham qo‘llash mumkin. *M* harfini o‘rganish jarayonida *Omina, mana, Noila, nom, amma, nima* singari so‘zlarni kesma bo‘g‘inlar yordamida yozish mumkin. Birinchi bo‘lib yozib bo‘lgan o‘quvchi o‘yin g‘olibi hisoblanadi va rag‘batlantiriladi.



O'quvchiga bilim berish, har bir dars mazmunini boyitish, qiziqarli mashg'ulotlarni dars jarayoniga singdirishni talab qiladi. Psixologlarning aniqlashicha, bolalar o'qituvchining oddiy tushuntirishi orqali egallab olgan ma'lumotlarga qaraganda turli xil ruhiy kechinmalar orqali o'zlari mulohaza yuritib, mustaqil bajargan ishlari vositasida o'zlashtirilgan bilimlarini uzoq esda saqlab qoladilar. Chunki o'quvchi mustaqil mashqlarni bajarishda faoliyat ko'rsatib, ilgari olgan bilimlariga tayangan holda ko'plab o'quv materiallarini xayolidan o'tkazadi. O'xshash hodisalarni taqqoslaydi. O'zicha mulohaza yuritib mustaqil hukm chiqaradi. O'qituvchilarning tayyor holda bergan ma'lumotida esa o'quvchi fikrlash faoliyati to'la ishga kirishmasdan to'g'ri javobni o'zlashtirib oladi. O'xshash hodisalarga duch kelishi bilan o'qituvchi bergan bilimni amaliyotga taqbiq qilishda qiynalib qoladi.

Bugungi ta'lim tizimi o'qituvchilar oldiga ota mas'uliyatli vazifalar yuklamoqda. O'qituvchi har bir o'tilayotgan darsga ijodiy yondashishi, darslarni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilishi, darsning har bir daqiqasidan unumli foydalanishi zarur. Darslarni shunday tashkil etish kerakki, o'quvchi har bir dars davomida egallashi lozim bo'lgan bilimlar hajmini, o'zida hosil qiladigan ko'nikma va malakalarni oldindan belgilab olishi lozim. Bu o'z navbatida o'quvchining mashg'ulotlarga aniq maqsad bilan qatnashishini taqozo qiladi. Chunki o'quvchi darsning oxirida belgilangan maqsadga erishganligini bilish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur.

Bola dunyoga kelishi bilan ota-ona va qarindosh-urug'lari kundan-kun o'sib borayotgan yosh inson faoliyatida odamlarga xos har xil harakatlarni ko'rgisi keladi va tez orada bu orzularining ro'yobga chiqayotganligining guvohi bo'ladi. Dastlabki davrlardan boshlab ona o'z bolasining qo'l-oyoq va gavda harakatlarini o'yin sifatida shakllantiradi. Keyinchalik bolaning butun faoliyati o'yin bilan bog'liq bo'ladi. Asta-sekin o'yin yosh bola hayotining asosiy mashg'ulotiga aylanadi. O'yin bolani aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyalash vositalaridan biridir. Bolalar o'yinlari yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. O'yin vaqtida bolaning sezgi va idroki, tafakkur va xayoli, xotira va diqqati, iroda va hissiyoti kabi ruhiy jarayonlari ishtirok etadi.

O'yinlar bolalarda jamoatchilikni his etish, intizomli bo'lish, jasur, qat'iyatli bo'lish, qiyinchiliklarni yenga bilish kabi sifatning tarkib topishida yordam beradi. Bola kattalarning kundalik hayotiy faoliyatidagi yumushlarni o'yin orqali bajarishga intiladi. Garchi bolalar o'yinlari mazmunan kattalar faoliyatining bir ko'rishini bo'lsa-da, uning o'ziga xos jihatlari bor. Birinchidan, bola o'yinni o'z xohishi bilan erkin va ijodiy bajaradi. Bu o'yinlar emotsional bo'lib, bolani o'ziga jalb qilib oladi. Bola o'yinga qiziqib ketadi, zavqlanadi, o'rtoqlik hissi kuchayadi. Bolalar o'yinlari mazmuniga ko'ra o'yinchoqli, harakatli va didaktik turlarga bo'linadi. Bu o'yinlarning barchasi bolalarni faoliyat yuritishga chorlaydi. Didaktik o'yinlar esa bolaga ta'lim berishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktab bola hayotida juda muhim o'rin turadi. Shu davrda u atrof-muhit, jamiyat va kishilar mehnati haqidagi bilimlarni egallaydi. Kecha o'yin bilan band bo'lib, erkin faoliyat ko'rsatib yurgan bolaning birdan maktabning ichki qonun-qoidalariga moslashishi, belgilangan tartib asosida mashg'ulotlarga o'z vaqtida qatnashishi oson kechmaydi. Shu tufayli kichik maktab yoshidagi bolalar o'yin bilan bog'liq darslarda juda faol qatnashadi. Didaktik o'yinlar orqali bola jamoani tushunadi, o'zi bajarayotgan mashg'ulotga nisbatan ongli munosabatda bo'ladi. Har bir mashg'ulot jarayonida ixtiyoriy diqqatini ishga soladi. O'yinda ilg'orlikka, g'alaba qozonishga intiladi. Shu sababli ham savod orgatish davrida



darslarga o‘yin elementlarini kiritish va undan ta’lim-tarbiyaviy maqsadlarda samarali foydalanish lozim.

Adabiyotlar:

1. Qosimova K., Matchonov S. , G‘ulomova X., Yo‘ldasheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. -Toshkent, “Nosir”, 2009.
2. Safarova R., Inoyatova M. Alifbe.Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik.-Toshkent,2021
3. Rohatoy Safarova, Muhayyo Inoyatova, Mirhabib G‘ulomov,Dadajon Sayfurov, Dilrabo Malikova Alifbe.O‘qituvchi kitobi. -Toshkent,2021